

YOSH ULOQLARNI YAYLOV SHAROITIDA BO'RDOQILASH Tajribalari

F.Kaniyazova

**Qaroqalpog'iston qishloq xojaligi va agrotexnologiyalar
instituti doktoranti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18595546>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh uloqlarni yaylov sharoitida bo'rdoqilash samaradorligi, ularning go'sht mahsuldorligi ko'rsatkichlari hamda turli hududiy yaylov sharoitlarining ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotlar Qoraqalpog'iston Respublikasining Ustyurt platosi yaylov hududlarida olib borilib, shimoliy, Orol bo'yi va janubiy hududlarda parvarishlangan yosh takachalarning tirik vazni, nimta vazni hamda so'yim chiqimi tahlil qilindi. Olingan natijalar yaylov hosildorligi va tabiiy-iqlim sharoitlari hayvonlarning semizlik darajasi hamda go'sht chiqimiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari yaylov sharoitida arzon tannarxli, yuqori sifatli go'sht yetishtirish imkoniyatlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: adir, cho'l, yaylov, go'sht, mahsuldorlik, irsiy, seleksion, zavod tiplari, parhezbop, zot.

EXPERIMENTS ON FATTENING YOUNG GOAT KIDS UNDER PASTURE CONDITIONS

F. Kaniyazova – Doctoral student, Karakalpakstan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Annotation: This article examines the efficiency of fattening young goat kids under pasture conditions, their meat productivity indicators, and the influence of different pasture areas on production results. The research was conducted in the pasture zones of the Ustyurt Plateau of the Republic of Karakalpakstan, where young goats raised in northern, Aral Sea coastal, and southern regions were comparatively studied. Indicators such as live weight before slaughter, carcass weight, and dressing percentage were analyzed. The findings confirmed that pasture yield and natural climatic conditions significantly affect the fattening level and meat output of goats. The results provide a scientific basis for producing cost-effective and high-quality meat products under natural pasture conditions.

Keywords: foothill, desert, pasture, meat, productivity, genetic, selective (breeding), factory types, dietary, breed.

Kirish: Hozirgi kunda echkichilik ilm fan rivojlangan davlatlar olimlari adir, cho'l va yaylov sharoitlarida echkilarni reproduktiv hamda go'sht mahsuldorlik ko'rsatkichlarini oshirish va takomillashtirish yo'nalishidagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratib kelmoqdalar Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston kabi mustaqil hamdo'stlik davlatlarida mahalliy va xorijdan keltirilgan echki zotlarini ko'paytirish, maxsuldorligini oshirishning yangi ilmiy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan. Echkilarning irsiy-seleksion salohiyatidan foydalanish asosida turli xududlar sharoitlariga mos yangi zavod tiplari va zotlarini yaratish orqali parhezbop sut, go'sht va jun maxsulotlari yetishtirish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Asosiy bo'lim: Qoraqalpog'iston Respublikasining tabiiy-iqlim sharoiti va mahalliy xalqning ko'p asrlik an'analari chorvachilikni rivojlantirishni, ayniqsa keskin iqlim sharoitga tez moslashuvchan echkichilikni rivojlantirishni taqozo etadi. Bu ichki bozorda go'shtga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun go'shtdor hayvonlar sonini oshirish, va shu orqali oziq-ovqat muammosiga ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatish lozim.

Mahalliy echkilar ozuqaga katta talabchan emas va saqlash sharoitlariga ham tez moslashuvchan bo'lganligi uchun Ustyurt yaylov sharoitlari echkilar uchun qulayli hisoblanib,

ushbu sharoitda yosh uloqchalardan arzon tannarxdagi go'sht mahsulotlarini etishtirish imkoniyoti kattadir.

So'nggi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida mahalliy echkilarni echkilarini saqlash va ko'paytirish sharoitlari sezilarli darajada o'zgardi. Sababi mahalliy aholining iqtisodiy daromadi echkichilik bilan bog'likdir.

Ularning asosiy qismi aholining shaxsiy xo'jaliklarida va qisman xususiy fermer xo'jaliklarida saqlanmoqda. Bu, shubhasiz, mahalliy echkilarining miqdori va sifatiga ta'sir ko'rsatadi hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Kutilgan natijalar: Mahalliy echkilarni ko'paytirishdan asosiy maqsad ko'p miqdorda yuqori sifatli go'sht olish va go'shtga bo'lgan talabni qondirishdir.

Echkilarning go'shtdorlik sifatlarini ta'sir etuvchi omillarga bog'lik holda o'rganish va ularni tirikligidayoq baholash va so'yishdagi ko'rsatkichlarini tahlil qilish borasidagi tadqiqotlar dolzarb bo'lib qolmoqda.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda, Ustyurt platosi yaylov sharoitida yosh uloqlardan go'sht etishtirishni maqsad qilib, tajriba davomida shimoliy, Orol bo'yi hududlari va janubiy hududlarda yaylov sharoitida saqlangan yosh hayvonlardan go'sht etishtirish natijalar o'rganish bo'ldi. Go'sht mahsuldorligini aniqlash borasida takachalarni ona echkilardan ajratish davrida, 9-10 oylik yosh bo'lganda yaylov tabiiy sharoitda va qo'shimcha ozuqa berish bilan semirtirgandan keyin o'tkazildi. Go'sht uchun so'yish jarayonlari 24 soatlik och qoldirishdan keyin takachalar vaznini o'lchash Butunrossiya chorvachilik ilmiy tadqiqot instituti usuli bo'yicha amalga oshirildi. Bunda so'yishdan oldingi tirik vazni, so'yilgandan keyingi vazni, submahsulotlar hisobga olindi.

Olingan ma'lumotlar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Yosh takachalarning (8-9 oylik) tabiiy yaylov sharoitida go'sht mahsuldorligi

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yaylov hududlari			O'rtacha hududlar bo'yicha
		Ustyurtning shimoliy hududi, n=3	Orol bo'yi hududlari, n=3	Ustyurtning janubiy hududi, n=3	
		X±S _x			
So'yishdan oldingi tirik vazni,	kg	27,1±2,4	25,4±2,2	26,1±1,9	26,2±2,2
Nimta vazni	kg	13,6±1,2*	12,5±1,1*	13,0±1,3*	13,0±1,2
So'yim chiqimi,	%	50,2	49,2	49,8	49,6


*P<0,01

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarda yosh takachalarning go'sht mahsuldorligi yaylov hududlari kesimida farqlanishi kuzatildi. Ustyurtning shimoliy hududida saqlangan yosh 8-9 oylik takachalarning tabiiy yaylov sharoitida (n=3) so'yishdan oldingi tirik vazni 27,1 $\pm$ 2,4 kg-ni tashkil qilgan bo'lsa, Ustyurtning janubiy hududida (n=3) 26,1 $\pm$ 1,9 kg-ga teng bo'ldi (p<0,01).

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Ustyurtning janubiy hududlaridagi saqlangan takachalarda (n=3) oraliq o'rinni egallab, 25,4 $\pm$ 2,2 kg-ni tashkil qildi. Nimta vazni shunga mos ravishda 13,6 $\pm$ 1,2; 12,5 $\pm$ 1,1 va 13,0 $\pm$ 1,3 kg-ga teng bo'ldi (p<0,01). Tabiiy ki, so'yim chiqimi ham

yaylovlar kesimida turlicha bo'lib, olingan ushbu ma'lumotlar Ustyurtning barcha yaylov hududlariga nisbatan yaylovlar kesimida farqlanishi quyidagi

Keltirilgan ma'lumotlar tahlili Shuni ko'rsatadiki, Ustyurt platosi yaylov hududlarining o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan yaylov kesimida so'yim chiqimida (%-da) farqlanishlar kuzatildi. Eng yuqori ko'rsatkich Ustyurtning shimoliy hududlari yaylovlarida o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan 0,6 %-ga ustunligi qayd etilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich Orol bo'yi hududlarida 0,4 %-ga kam va Ustyurtning janubiy hududladi esa, 0,2 foizga ustunlik qildi.



1-rasm. O'rtacha hududlar bo'yicha ko'rsatkichga nisbatan yaylov kesimida farqlanishi, %

Xulosa: Shuni aytish mumkinki, Ustyurt platosining shimoliy hududlari yaylov hosildorligi yuqoriligi bilan ajralib turadi, bu o'z navbatida echkilarning semizlik darjasiga bevosita ta'sir ko'rsatib, go'sht chiqimini oshiradi. Janubiy hududlarda yog'ingarchilik miqdori shimoliy hududlarga nisbatan biroz kamligi tufayli, bir yillik o'simliklarning shu tariqa issiq havo iqlim sharoitida qurib qolishi sababli hosildorligi birmuncha pastligi kuzatiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Toreshova A.U., Yerimbetova Zh.B., Utilizing the Biological Potential of Goats to Increase Meat Productivity. International scientific and practical conference. February 8, 2025.p.599-602.
2. Рахимова Н. К. Сезонное использование пастбищ Каракалпакского Устюрта. Проблемы ботаники Южной Сибири и Монголии, 2023. – Т. 22, №1. С. 296-301.
3. Филатов, А.С. Мясная продуктивность и химический состав мяса молодняка овец и коз / А.С. Филатов // Овцы, козы, шерстяное дело. -2021. - № 3. - С. 67-69.
4. Оюн А.Б.С, О.Сандок-Хуурак., Монгуш С.Д., Повышение продуктивности шерстных коз тувинской популяций. Ж. Овцы, козы, шерстяное дело. -2020. № 2. С. 36-37.
5. Чагаров, С.У. Хозяйственно-биологические особенности коз разной породности при разведении их в высокогорной зоне Северного Кавказа: дис. канд. / С.У. Чагаров. - Ставрополь, 1978. - 164 с